

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.K.Kurbaniyazova	
Milliy mentalitetning tilda namoyon bo'lishi	106
Sh.D.Shodmonova	
Jamoat xavfsizligini ta'minlash, unga qarshi tahdidlarni oldini olishning ijtimoiy zarurati	110
A.I.Samijonov	
“Xavfsizlik” va “Kiberxavfsizlik” atamasining mazmun-mohiyati va jamiyat hayotida xavflilik darajasini baholanishi	114
N.X.Djalalova	
Yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi	119
I.Z.Nazarova	
Yangi O'zbekistonda milliy san'at taraqqiyotining istiqbollari	123

ТАРИХ

A.B.Musayev	
Qo'qon xonligining tashkil topishi arafasida Farg'ona vodiysi	129
Ф.А.Эгамбердиев	
Некоторые вопросы использования института жалоб как способ защиты прав участников на досудебной стадии уголовного процесса	133
M.M.Xolmatov	
O'zbekistonda kollektivlashtirish asosida agrar sohaning isloh qilinishi va uning oqibatlarini.....	138
N.R.Israilov	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati Lui Le Rua talqinida.....	144
O.B.Nizomiddinov	
Farg'ona vodiysida 1920-1930 yillarda ta'lim tizimining rivojlanishi: birinchi oliy ta'lim muassasaning tashkil etilishi	149

АДАБИЙОТШУНОСЛИК

Q.V.Yo'lchiyev	
O'zbek she'riyatida anor obrazining tadriji takomili	156
A.Badalova	
The effect of war to the inner world of characters in leo tolstoy's novel "War and peace"	161
S.F.Yuldosheva	
Xalq qissalarida Hazrati Xizr Alayhissalom obrazi	166
D.I.Nazarova	
Hozirgi aruziy she'rlarning qofiya tuzilishi	170
S.A.Xodjayev, O.Y.Sobirjonova	
Epik asar syujetida uchrashuv Motivining o'rni (L.Tolstoyning “Baldan so'ng” hikoyasi misolida).....	175
M.R.Oxunova	
Sharlotta Bronte “Jeyn Eyr” romanida xarakter tasviri	178
L.Hasanova	
Aesthetics of the literary direction romanticism	182
Q.V.Yo'lchiyev	
Abdulla sher sonetlari tahlili	186
Z.F.Shukurova	
“Tarixi Rashidiy” asarining hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil talqini	192

TILSHUNOSLIK

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Metaforalarning poetik matndagi o'rni (Siddiq Mo'min ijodi misolida).....	195
Z.V.Alimova	
Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi “Zar” va “Zarra” asoslari bilan bog'liq leksemalar xususida	198



UO‘K: 1. 17. 172. 172.2

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH, UNGA QARSHI TAHDIDLARNI OLDINI OLISHNING IJTIMOY ZARURATI**СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ УГРОЗ ПРОТИВ НЕЕ****THE SOCIAL NEED TO ENSURE PUBLIC SAFETY AND PREVENT THREATS AGAINST IT****Shodmonova Shaxnoza Dadaxujayevna** 
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada jamoat xavfsizligini ta‘minlash, unga qarshi tahdidlarni oldini olishning ijtimoiy zarurati, zamonaviy ijtimoiy falsafiy va siyosiy konsepsiyalar tahlili asosida jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan tahdidlarning mafkuraviy, g‘oyaviy hamda informatsion shakllari ko‘rsatilib, ularni bartaraf etishda ijtimoiy konsensus mexanizmlari asosida ijtimoiy shartnoma, kelishuv, murosa va hamkorlikni yo‘lga qo‘yishning falsafiy jihatlari tahlil qilinganyu

Abstract

This article shows the ideological, ideological and informational forms of threats to public safety, based on the analysis of modern social philosophical and political concepts, the social need to ensure public safety, the prevention of threats against it, and the social contract based on the mechanisms of social consensus in their elimination. , the philosophical aspects of establishing agreement, compromise and cooperation are analyzed

Аннотация

В статье на основе анализа современных социально-философских и политических концепций показаны идеологические, идеологические и информационные формы угроз общественной безопасности, социальной потребности в обеспечении общественной безопасности, предотвращении угроз против нее, а также общественного договора, основанного на о механизмах социального консенсуса в их устранении, анализируются философские аспекты установления согласия, компромисса и сотрудничества.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, konsensus, ijtimoiy konsensus, ijtimoiy shartnoma, ijtimoiy murosa.

Key words: public safety, consensus, social consensus, social contract, social compromise.

Ключевые слова: общественная безопасность, консенсус, социальный консенсус, общественный договор, социальный компромисс.

KIRISH

Bugungi global axborot almashuv maydonida jamiyatlarning ijtimoiy barqarorligini ta‘minlash, xavfsizligini mustahkamlash masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Bu esa jamoat xavfsizligini ta‘minlashni yangi bosqichga olib chiqish bilan birga bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni yana-da kengaytirishni zaruratga aylantiradi.

Muallifning fikricha, “xavfsizlik” ichki va tashqi ta’sirlarning mavjudligi sharoitida tizimning hayotiy mavjudlik mexanizmining buzilishiga doir obyekt holatini ifoda etadi. Uning har qanday tahdidni xavf-xatar sifatida qabul qilishi o‘rinli bo‘lmaydi, xavfsizlik xavf-xatarni yengib o‘tish natijasida yuzaga keladi.

MATERIALLAR VA METODLAR

S.I.Ojegov xavf va tahdid tushunchalariga quyidagicha izoh beradi: “O‘z navbatida “xavfsizlik”ning antonimi “xavf, tahdid qilish, zarar yetkazish”dir[1], “tahdid” tushunchasi – mumkin bo‘lgan xavf, qo‘rqitish, kimgadir yomonlik qilish, zarar yetkazishdir[2].

S.I.Girkoning fikricha, “jamiyatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish sifatida jamoat xavfsizligi juda muhim nazariy va amaliy muammo ekanligini ko‘rsatadi, uni hal qilish, boshqa ijtimoiy munosabatlar qatori, mamlakatda jamoat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha huquqni muhofaza qilish strategiyasini belgilashga bevosita bog‘liq”[6].

FALSAFA

Professor L.L.Popovning fikricha, “jamoat xavfsizligi deganda odamlar va umuman jamiyat uchun ortib borayotgan xavf-xatarni keltirib chiqaradigan obyektlar va obyektlardan foydalanishda, alohida sharoitlar, tabiiy ofat yoki ijtimoiy yoki texnogen xususiyatdagi boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, huquqiy, texnik va boshqa turdagi normalarga muvofiq yuzaga keladigan jamoat munosabatlari tizimi tushuniladi”[7].

S.V.Stepashin jamoat xavfsizligi—bu ijtimoiy munosabatlarning sifat holatini, jamiyatning muayyan tarixiy va tabiiy sharoitlarda izchil rivojlanishini ta’minlash, turli omillar ta’sirida mazmuni va yo’nalishini o’zgartiradigan ichki va tashqi kelishmovchiliklardan kelib chiqadigan xavf-xatarlardan himoya qilishdir, deb hisoblaydi[8].

Asl konsepsiya B.P.Kondrashov tomonidan taklif qilingan. Uning fikricha, “jamoat xavfsizligi—bu normalarga rioya qilish va amalga oshirish natijasida shakllanadigan ijtimoiy-huquqiy kategoriya, daxlsizligi davlat, jamiyat tomonidan kafolatlangan jamoat munosabatlari tizimidir”[9].

Shunday qilib, “xavfsizlik” tushunchasini kimgadir, nimagadir xavf-xatarning yo’qligi deb talqin qilish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ba’zan hayot faoliyati bilan jarayonlarni xavfsizlikni ta’minlashni boshqarishda “xavfsizlik” atamasini o’zi ishlatilmasdan, ba’zan murakkab atamalar ishlatiladi va unda “xavfsizlik” atamasi tashkil etuvchi bo’lib xizmat qiladi. Atamalarning tashkil etuvchi qismi sifatida quyidagilar ham qaralishi mumkin: hayot faoliyati subyektlari – shaxs, shaxs xavfsizligi, jamiyat, jamiyat xavfsizligi, davlat, davlat xavfsizligi; hayot faoliyati obyektlari – subyektlarning muhim hayotiy manfaatlarini qoniqtirishni ta’minlash: hudud, hudud xavfsizligi; iqtisod, iqtisodiy xavfsizlik; atrof muhit, atrof muhit xavfsizligi va boshqalar; obyektlar – xavf manbalari: atrof muhit – atrof muhitning ekologik xavfsizligi, sanoat obyekti – sanoat obyektining xavfsizligi, bank – bank xavfsizligi va boshqalar; obyektlar – xavfsizlik vositalari: samolyot – samolyotning xavfsizligi; avtomobil – avtomobilning xavfsizligi; umuman texnika xavfsizligi; hayot xavfsizligi jarayoni: mehnat – mehnat xavfsizligi, yo’l harakati – yo’l harakati xavfsizligi va boshqalar.

“Ilmiy adabiyotlarda va rasmiy hujjatlarda «jamoat xavfsizligi» tushunchasiga nisbatan davlatning turli manfaatlarini himoya qilinadigan, real va potensial xavf, ichki va tashqi tahdidlar ehtimoli minimallashtirilgan, shaxs va jamiyatning samarali rivojlanishi uchun imkoniyat yaratilgan holatni tavsiflash uchun ishlatiladi”[3]. Ushbu umumiy nazariy ta’rif boshqaruv va huquqiy (ma’muriy-huquqiy) jihatlarni o’zida aks ettiradi, “jamoat xavfsizligini ta’minlash esa shaxs va jamiyatni himoya qilish, ularning xavfsiz hayoti, huquq va erkinliklarini ta’minlash kafolati sifatidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish bilan bog’liq”[4].

“Jamoat xavfsizligi” tushunchasini tahlil qilishga to’xtaladigan bo’lsak, shuni takidlash joizki, bugungi kunda ilmiy ishlarda ushbu huquqiy toifani belgilash bo’yicha ko’plab qarashlar shakllangan. “Jamoat xavfsizligi” atamasi ilmiy bilimlarning turli sohalarida va ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning amaliy faoliyatida keng qo’llaniladi. Biroq, uning keng qo’llanilishiga aramay, afsuski, bugungi kunda «jamoat xavfsizligi» ta’rifiga yagona yondashuv mavjud emas. Shu munosabat bilan “jamoat xavfsizligi” tushunchasining mazmunini aniqlash bo’yicha ilmiy adabiyotlar, amaldagi qonun hujjatlarini har tomonlama tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Jamoat xavfsizligini hisobga olgan holda L.Rogozin uni “tabiiy ofatlar yoki boshqa maxsus sharoitlar bilan bog’liq holda, alohida sharoitlar yuzaga kelganda jamiyat uchun ortib borayotgan xavf tug’diruvchi obyektlardan foydalangan holda, huquqiy normalarga muvofiq shakllanadigan jamoat munosabatlari tizimi” [5] deb ta’riflaydi.

Jamoat xavfsizligi ta’limotini professor V.V.Gushin yana-da boyitib, “jamoat xavfsizligi ijtimoiy-huquqiy hodisa ekanligini ta’kidlab, shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlariga potensial yoki real xavf tug’diruvchi shart-sharoitlar va omillarning oldini olish, lokalizatsiya qilish va bartaraf etish maqsadida huquqiy normalar tizimi bilan tartibga solinadigan jamoat munosabatlari uchun xavf ortishining bilvosita manbalari majmui sifatida tushunish” lozimligini ta’kidlagan.

Olim shuningdek, xavfsizlik muammosi insoniyatning omon qolishi va barqaror ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim mezoniga aylanib borayotganini va aynan zamonaviy sharoitda xavfsizlikning yetarli darajasi nafaqat davlat manfaatlarini, balki butun jamiyat manfaatlarini ham qamrab olishi kerakligini ta’kidlaydi. Shu sababli, “umuman xavfsizlikning ustuvorligi inson va butun jamiyatni himoya qilishdir. Ijtimoiy (jamoat) xavfsizlikning mohiyati shu bilan bog’liq bo’lishi

kerak"[10]. Xuddi shunday pozitsiyani B.T.Xamxoyev ham bildirgan. Muallifning ta'kidlashicha, "jamoat xavfsizligi deganda jamiyatning barqaror mavjudligini, fuqarolarning zarur ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish va amalga oshirishni, turli xil jinoyatlarning oldini olish yoki xavf va tahdidlarni bartaraf etish qobiliyatini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlarning sifatli taraqqiyoti va rivojlanish holati tushunilishi kerak." Jamoat xavfsizligi, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, B.T.Xamxoyevning fikricha, "jamoat xavfsizligi odamlarning hayoti va sog'lig'iga, ularning mol-mulkiga tahdidlarning oldini olish yoki bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladigan ajralmas qismdir"[11].

"Jamoat xavfsizligi» tushunchasi mazmunida olimlarning alohida guruhi uni himoya qilishning barcha obyektlarini belgilaydi, ya'ni: jamoat xavfsizligi—bu odamlarning hayoti va sog'lig'iga, moddiy boyliklar va atrof-muhitga tahdidlarning oldini olish va bartaraf etishni ta'minlaydigan organlar va vositalar to'plamidir, deb fikr bildirishadi"[12]. Jamoat xavfsizligi nafaqat xavfsizlik holati, balki jamiyat huquqiy tizimining ajralmas elementi sifatida ham qaraladi, unda turli tahdidlarning oldini olish va bartaraf etish uchun maxsus huquqiy mexanizmlar ishlaydi.

XULOSA

Bizning fikrimizcha, jamoat xavfsizligining bunday ta'rifi juda oddiy ko'rinadi, chunki hatto eng ideal politsiya organi»ning mavjudligi ham jamoat tinchligining to'liq holatini kafolatlamaydi.

Yuqorida aytilganlarning mohiyati shundan dalolat beradiki, olimlarning zamonaviy ilmiy fikrlarida "jamoat xavfsizligi" tushunchasini ta'riflashda yagona qarash yo'q.

Mamlakat hamda uning fuqarolari, jamiyat va davlatning muhim mafaatlarini tashqi va ichki xavflardan himoyalash uchun har bir davlatda xavfsizlikni ta'minlash tizimi tuzilgan bo'ladi, unda asosiy element sifatida xavfsizlik obyektlar hamda xavfsizlik subyektlari tarkibi kiritilgan bo'ladi. Umuman olganimizda, etimologiyaga ko'ra xavfsizlik so'zi xavfning yo'q ekanligini bildiradi. Bu so'zning tashkil etuvchisi – xavf so'zidir. Bundan "xavfsizlik" tushunchasini ma'nosini asoslash uchun unga teskari bo'lgan "xavf" yoki "tahdid" tushunchasini tadqiq etish lozim bo'ladi. "Xavf" tushunchasining paydo bo'lishi salbiy faktorlar bilan bog'liq, ya'ni uning natijasida insonlarda ularning hayoti va sog'lig'ini saqlashdagi xuquqi buziladi, tashkilotlar va ishlab chiqarish korxonalarida esa - tashkilot va ishlab chiqarish korxonasining mavjudligi va rivojlanishi butunlay to'xtashi mumkin. Shunday qilib, "xavfsizlik" va "xavf" tushunchalarining shakllanishi bevosita insonlar va tashkilotlarning kundalik hayoti hamda faoliyati jarayonida "rejalashtirilmagan" ziyon yetkazish bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ожегов С.И. Словарь русского языка. -М.: -1990. С.38. (Ozhegov S.I. Dictionary of the Russian language. - M.: -1990. P.38.)
2. Ожегов С.И. Словарь русского языка. -М.: -1990. С.39. (Ozhegov S.I. Dictionary of the Russian language. - M.: -1990. P.39.)
3. Концепция общественной безопасности в Российской Федерации от 20 ноября 2013 года URL: <http://kremlin.ru/acts/news/19653>. (The concept of public security in the Russian Federation of November 20, 2013 URL: <http://kremlin.ru/acts/news/19653>.)
4. Радюшин Я.Н. Компетенция органов государственной власти и органов местного самоуправления в сфере обеспечения общественной безопасности: дис. ... канд. юрид. наук. М., 2004. 220 с.(Radyushin Ya.N. Competence of state authorities and local governments in the sphere of public safety: diss. ... candidate of legal sciences. Moscow, 2004. 220 p.)
5. Попов Л.Л. Административное право (вопросы административно-юрисдикционной деятельности органов внутренних дел). М.: Академия МВД СССР. 1983. 280 с.(Popov L.L. Administrative law (issues of administrative-jurisdictional activities of internal affairs bodies). Moscow: Academy of the Ministry of Internal Affairs of the USSR. 1983. 280 p.)
6. Гирько С.И. Обеспечение общественной безопасности в системе мер защиты личности, общества и государства: состояние, проблемы, перспективы // Административное право и процесс. 2009. № 5. С. 8.(Girko S.I. Ensuring public safety in the system of measures to protect individuals, society and the state: status, problems, prospects // Administrative law and process. 2009. No. 5. P. 8.)
7. Административное право/под ред. Л.Л.Попова. М.: Юрист, 2002. 699 с (Administrative law/edited by L.L.Popov. Moscow: Jurist, 2002. 699 p.)
8. С тепашин С.В. Теоретико-правовые аспекты обеспечения безопасности в Российской Федерации: дис. ... докт. юрид. наук. СПб., 1994. 246 с.(S. V. Terashin. Theoretical and legal aspects of ensuring security in the Russian Federation: diss. ... Doctor of Law. St. Petersburg, 1994. 246 p.)
9. Кондрашов Б.П. Общественная безопасность и административно-правовые средства её обеспечения: дис. ... докт. юрид. наук. М., 1998. 302 с.(Kondrashov B.P. Public safety and administrative and legal means of ensuring it: diss. ... Doctor of Law. Moscow, 1998. 302 p.)

FALSAFA

10. Гущин В.В. Правовые и организационные основы обеспечения общественной безопасности в Российской Федерации при чрезвычайных ситуациях: дис. ... докт. юрид. наук. М., 1998. 449 с. (Gushchin V.V. Legal and organizational foundations for ensuring public safety in the Russian Federation in emergency situations: diss. ... Doctor of Law. Moscow, 1998. 449 p.)

11. Хамхоев Б.Т. Проблемы определения общественной безопасности // Административное право и процесс. 2011. № 7. С. 40–42. (Khamkhoev B.T. Problems of defining public safety // Administrative law and process. 2011. No. 7. P. 40–42.)

12. Туманов Г.А., Фризко В. И. Общественная безопасность и ее обеспечение в экстремальных условиях // Советское государство и право. 1989. № 8. С. 21–23. (Tumanov G.A., Frizko V.I. Public safety and its provision in extreme conditions // Soviet state and law. 1989. No. 8. P. 21–23.)